

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04. 2022. Fil.20.07. RAQAMLIILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

TOLEUBAYEVA ALIYA ONDASINOVNA

**MEDIAMAKONDA MA'NO KO'CHISHINING
LINGVOKUL'TUROLOGIK ASPEKTI (qoraqalpoq, o'zbek va ingliz gazeta
matnlari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Toleubayeva Aliya Ondasinovna

Mediamakonda ma'no ko'chishining lingvokulturologik aspekti (qoraqalpoq, o'zbek va ingliz gazeta matnlari misolida)..... 3

Toleubayeva Aliya Ondasinovna

Lingustic and cultural aspect of changing the meaning in the media space (on the examples of the Karakalpak, Uzbek and English newspaper texts)..... 25

Толеубаева Алия Ондасыновна

Лингвокультурологический аспект переносного значения в медиапространстве (на примерах каракалпакских, узбекских и английских газетных текстов)..... 47

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works..... 52

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04. 2022. Fil.20.07. RAQAMLIILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

TOLEUBAYEVA ALIYA ONDASINOVNA

**MEDIAMAKONDA MA'NO KO'CHISHINING
LINGVOKUL'TUROLOGIK ASPEKTI (qoraqalpoq, o'zbek va ingliz gazeta
matnlari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Pespublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligihuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2988 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Teshabaeva Dिल्фуза Muminovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Alniyazov Aytmurat Ismailovich
filologiya fanlari doktori, professor

Mirsanov Gaybulla Kulmuradovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Etakchi tashkilot:


Buxorodavlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil «20» sentyabr soat 9.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz).


Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (200 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «30» avgust kuni tarqatildi
(2024-yil «30» avgust dagi № 5 -raqamli restr bayonnomasi).




M.S.Kudaybergenov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashi raisi,
filologiya fanlari doktori, professor


J.E.Seytjanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filologiya fanlari nomzodi, professor


G.A.Kurbaniyazov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar til omiliga antroposentrik yondashuv va uning lingvokulturologik aspektlarini yoritishning tarkibiy qismi. Media lingvistikaning uslubiy apparati ommaviy axborot vositalari matnlari o'rganilgan ko'plab sohalarning yutuqlarini birlashtirib, diskurs tahlil, kontent tahlil, kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik fanlari doirasida mediamatnlarni psixolingvistik, etnolingvistik, sotsiolingvistik, lingvokulturologik aspektda tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslik kun tartibiga qo'yilmoqda. Mediamatnlar shaxs omili bilan uzviy bog'liq til birligi sifatida til vakilining ruhiy, aqliy, milliy, madaniy omillari va nutqiy vaziyat talabidan kelib chiqib, ekspressivlikni yuzaga keltirishi ma'no ko'chish xodisasiga murojaat etishni taqazo etadi.

Dunyo tilshunosligida media tilini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar sirasida gazeta matnida baholash usulining qo'llanishi bilan bog'liq lisoniy birliklarda aks etuvchi ma'no ko'chish xodisasi o'rnini aniqlash, xususan qoraqalpoq va o'zbek tilshunosligida ham davriy matbuotda chop etilayotgan material hamda matnlarning leksik-stilistik va strukturaviy kompozitsion xususiyatlarini o'rnatish asosida ilmiy tadqiq etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu ma'noda mediamatnlarda xalq hayotining hozirgi holati yoritilishining lingvistik jihatlarini o'rganish, ma'no ko'chish hodisasini gazeta matnlari misolida lingvomadaniy aspektda tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda OAVga hozirgi lisoniy jarayonlarning markazidagi borliq sifatida qaralmoqda, zero u milliy tilning hozirgi zamondagi modeli sifatida namoyon bo'lmoqda hamda adabiy leksika bilan doimiy ta'sirlashuvda ekanligi asoslanmoqda. "... xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dardu tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotgan bugungi kunda har bir ommaviy axborot vositasi chinakam muloqot maydonchasiga, erkin fikr minbariga aylangan taqdirdagina biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz"¹. Shunga ko'ra, o'rganilayotgan til taraqqiyoti doirasida til birliklarining chog'ishtirma tadqiqi, qardosh bo'lmagan tillarda lingvistik, milliy va madaniy xususiyatlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8- oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2019yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, hamda 2017 yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida»gi Qarori, 2018 yil 5 iyundagi PQ-

¹Мирзиёев Ш. Ўзбекистон матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларини касб байрами билан табриги.<https://daryo.uz/k/2017/06/27/https://daryo.uz/k/2017/06/27/>

3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2021 yil 19 maydagi «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari» to'g'risidagi PQ-5117 son Qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kungacha tilshunoslikda matn, tilning tasviriy vositalari, publitsistika tili, ekspressivlikni o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar bajarilgan.

Ma'no ko'chish turlari obrazni ifodalovchi asosiy uslubiy vositalar sifatida L.Bulaxovskiy, L.Blumfil'd, I.Gal'perin, Ye.Kubryakova, A.Shomaqsudov, O'.Sharipova, M.Mirtojiyev I.Rasulov, I.Arnold, G.Qobuljonova, M.Mirzaev, M.Mukarramov, Z.Tohirov, S.K. Xojiev, G.Nasrullaeva, A.Suvonova, S.Sultonsaidova, M.Dedaxanova² kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

OAV tilining lingvistik xususiyatlari A.Abdusaidov, G.H. Bakieva, D.M. Teshabaeva, M.Israil, S.Shomaqsudova, E.Begmatov, S.Qo'ng'urov, D.S. Xudoyberganova, Yo.Odilov, A.X. Mirzajonov, M.Artikova, Sh.Usmanova, Sh.Jabbarova³ va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar shular jumlasidandir.

²Булаховский Л.А. Введение в языкознание. Ч.II. – М.: Госучпедгиз, 1954; Galperin I.R. Stylistics. – Moscow, Higher School, 1977. – P. 144-146; Шомаксудов А., Расулов И. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1983.; Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – М.: Просвещение. 1990.; Сувонова Р.А. Ўзбек тилида метонимия. Филол.ф.н. дисс ... автореф. – Самарқанд, 2001.; SultonsaidovaS., SharipovaO'. O'zbektilistilistikasi. – Т.: YURISTMEDIYAMARKAZI, 2009.; Курбонова М. Мустақиллик даври достонларида метонимия ва синекдохадан фойдаланиш маҳорати. Филол. фан.н. дисс... автореф. – Фарғона, 2019.; Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси / масъул муҳаррир А.П.Ҳожиев. – Т.: MUMTOZSO'Z, 2010.; Дедаханова М.А. Модерн шеърятда маъно кўчишининг лингвокогнитив аспекти (Рауф Парфи ижоди мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дис.автореф. – Тошкент, 2021.; Хожиев С.К. Сўз маъносининг кўчиши билан боғлиқ лингвистик ҳодисалар. Филол. фан.н. дисс... автореф. – Тошкент, 2007. – 23 б.

³Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан.д. дисс... автореф. – Самарқанд, 2005; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот тили. – Тошкент: O'zkitobsavdo nashriyot, 2019.; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Медиамаконда матн. – Тошкент, 2019; Тешабаева Д.М., Бакиева Г.Х., Исраил М.И ва бошқ. Медиалингвистика ва таҳрир. Журналистика. III жилд.– Тошкент: Ozbekiston, 2019; Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол. фан.д... дис. – Тошкент, 2012; Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан.д... дис. – Тошкент, 2015.; Shomaksudova S., Israil M. OAVda yozma matn. Nutq va munozara. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2018; Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти асослари. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1992.; Одилов Ё. Глобаллашув даври публицистикасининг тилининг тараққиёти. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – 245 б.; Усманова Ш.Б. Медиадискурсада газета тили тенденциялари (Ўзбек ва инглиз тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2021. – 149 б.; Артикова М. Медиаматнда прецедентлик феноменининг лингвомаданий аспекти (Ўзбек ва испан газеталари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2022.

Qoraqalpoq tilshunosligida gazeta tili borasida bir qancha ishlar bajarilgan bo'lib ular qatoriga M.Q. Ayimbetov, T.J. Masharipova, Z.Q.Orazimbetova, G.P. Kallibekova, D.Q. Qurbaniyazovlarni⁴ kiritish mumkin.

OAV matnida tilning tasviriy vositalari va ularning lingvistik xususiyatlari I. Tolstikova Makkey, O.P. Matienko, V.V. Lapshina, Yu.V. Podkina⁵larni tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Biroq o'zbek va qoraqalpoq tilshunosliklarida mediamatnlarida voqealanganma'no ko'chish xodisasini lingvomadaniy xususiyatlari tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Lisoniy hodisalarning pragmatik va kognitiv-diskursiv tahlili» mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillarini chog'ishtirish orqali ma'no ko'chish xodisasini gazeta matnlarida qo'llanish darajasi, ularning turlari, roli va milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek, qoraqalpoq va ingliz tilshunosligida ma'no ko'chish xodisasini bosma mediamatn nuqtai nazaridan tadqiq etish;

o'zbek, qoraqalpoq va ingliz matbuotida ma'no ko'chish xodisasi tushunchasining namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash;

chog'ishtirilayotgan tillarda ma'no ko'chish turlarini bosma mediamatnda ijtimoiy-siyosiy jarayonga bog'liq ekspressivlikni ta'minlovchi vosita ekanligini asoslash;

gazetalardagi ma'no ko'chish xodisasini gazeta janrlari bilan bog'liqligini ochib berish;

ma'noko'chish xodisasini qo'llash jurnalist mahorati bilan bog'liqligi va etnomadaniyatda namoyon bo'lish xususiyatlarini ochib berish;

ma'noko'chish turlari hamda ularning lingvomadaniy jihatlarini o'rganish.

– 123 б.; Джаббаровов Ш.Б. Медиадискурсда муқобилсиз лексиканинг лингвомаданий аспектда тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ...дисс. – Термиз. 2022.

⁴Айымбетов М.Қ. Опыт лингвостатистического анализа лексики и морфологии каракалпакского публицистического текста. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нукус, 1991. – 29 с.; Оразымбетова З.Қ. Қорақалпоқ вақтли матбуоти тилининг шаклланиши (1924-1940 йй. матбуоти материаллари асосида). Филол. фан. ном. ... дис. автореф. –Нукус, 2006.; Оразымбетова З. Қарақалпақ кўнделикли баспасөзи тилининг стильлик өзгешеликтери. Филол илим. д-ри (DSc)...дис. – Нөкис, 2019. – 236 б.; Машарипова Т.Ж. Публицистика назариясининг яхлит концепцияси (илмий-методологик таҳлил, Қорақалпоғистон Республикаси матбуоти материаллари мисолида). Филол.ф.ан. (DSc) ... дисс. – Нукус. 2020. – 52 б.;Каллибекова Г.П. Қарақалпақстан тараўлық газеталарының тили ҳәм стильлик өзгешеликтери. Филол. илим.бўйынша. (PhD)... дис. – Нөкис, 2022.; Қурбаниязов Д.Қ. Қорақалпоқ матбуотида сарлавҳанинг семантик-структурвий ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ...дис. автореф. – Нукус, 2022. – 53 б.

⁵Толстикова Маккей И. Метафора в русскоязычной прессе США. Автореф... канд.филол.наук. – Москва, 2012. – 28 с.; Матиенко О.П. Ключевые метафоры экономики в текстах российских СМИ. Автореф... канд.филол.наук. – Омск 2022. – 24 с.; Лапшина В.В. Метафора как средство конструирования имиджа политика: на материале австрийских печатных СМИ. Дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2006. – 151с; Подкина Ю.В.Использование лексических средств выразительности в журналистских публикациях на экономическую тему (на материале массовых и специализированных изданий). Автореф... канд.филол.наук. – Москва. 2020. – 25 с.

Tadqiqotning ob'ektisifatida 2018-2023-yillarni qamrab olgan qoraqalpoq, o'zbek va ingliz gazeta matnlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek, qoraqalpoq va ingliz gazeta matnlarida ma'no ko'chish xodisasining (metafora, metonimiya, sinekdoha va h.k.) lingvomadaniy aspekti tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, izohlash, chog'ishtirish, bayon etish, komponent tahlil, kross-madaniy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq, o'zbek va ingliz bosma media matnlarida ma'no ko'chishining emotsionallik, ekspressivlik, baholash hamda nutqiy ta'sir qiluvchi asosiy vosita sifatidagi maqomini asoslash orqali davriy bosma mediada ma'no ko'chishining axboriy, tahliliy va badiiy-publisistik janrlarda namoyon bo'lish darajasi lingvomadaniy aspektda aniqlangan;

ingliz, qoraqalpoq va o'zbek tillarida ma'no ko'chish hodisasi ya'ni gazeta metaforasining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash hamda publisistik uslubdagi metafora, metonimiya va sinekdoxaning lingvistik mohiyatini ochib berish orqali ularning ma'no ko'chishida, yangi ma'no yaratishda hamda gazeta matni ekspressivligini oshirishdagi samaradorligi aniqlangan;

publisistik uslubda ma'no ko'chish xodisasining nominatsiya vositasi sifatida hamda tilda mavjud bo'lgan ma'nolarni kognitiv manipulyasiya qilish usuli va dunyoning lisoniy tasvirini to'g'ridan-to'g'ri aks ettiruvchi vosita sifatida namoyon bo'lishi dalillangan;

qoraqalpoq, ingliz va o'zbek tillari publisistikasida yashirin baholashning ritorik aspektda ko'chma ma'noli so'zlarda kuchli namoyon bo'lishi ishonitirishning ikkita asosiy turini (assotsiativ-baholovchi va emotsional-estetik baholovchi) ajratish orqali isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ma'noko'chishni media matnlarda namoyon bo'lishi bo'yicha taklif va tavsiyalardan jurnalistikada lingvistik to'g'ri media matnlar tuzishda foydalanish mumkinligi asoslangan;

ma'noko'chishni turlarining o'zbek, qoraqalpoq va ingliz gazetalarida voqeanishigadoir xulosalari tegishli oliy o'quv yurtlarida darslik, qo'llanma hamda elektron lug'atlar yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

tadqiqot natijalari gazeta matni ifodaviyligi hamda ta'sirchanligini oshirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, to'plangan materiallar tahlili asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarilganligi, muammoga o'zbek, qoraqalpoq va ingliz gazeta tili hamda madaniyatining xususiy tabiatidan kelib chiqqan holda yondashilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to'plangan materiallar va olingan natijalar kognitologiya, lingvokulturologiya, semantika, tarjimashunoslik, leksikologiya, frazeologiya kabi fanlardan ilmiy adabiyotlar yaratishda hamda kelgusida o'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillari olam manzarasi tadqiqiga oid

kognitologik, tarixiy-etimologik, milliy-madaniy, baholovchi-aksiologik tadqiqotlar olib borish, monografiyalar, o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarinig amaliy ahamiyati "Tarjimanazariyasivaamaliyoti", "Zamonaviylingvistika", "Mamlakatshunoslik", "Matnlingvistikasi", "Roman-germanfilologiyasigakirish" kabifanlarnio'qitishda, seminar, maxsuskurslartashkiletishdaahamiatlimanbasifatidaqo'llanilishi, nazariy fikr-mulohazalardanlingvokognitologiya, chog'ishtirtilshunoslik, tarjimashunoslik, leksikologiya, lingvokulturologiyafanlarinio'qitishda, o'zbek,qoraqalpoqvaingliztilinio'rgatishhuchundasturlar, darslik, o'quvqo'llanmalarnitayyorlashda, lug'atlartuzishdafoydalanishmumkinligibilanizohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.O'zbek, qoraqalpoq va ingliz mediamatnlarida ma'no ko'chish hodisasi va turlarining qo'llanishi, har mamlakat madaniyatidagi o'xshashlik hamda farqlarning gazeta matnida namoyon bo'lishi, ma'no ko'chish hodisasining lingvomadaniy xususiyatlari tahlili bo'yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflardan:

qoraqalpoq, o'zbek va ingliz bosma mediamatnlarida ma'no ko'chishining emotsionallik, ekspressivlik, baholash hamda nutqiy ta'sir qiluvchi asosiy vosita sifatidagi maqomini asoslash orqali davriy bosma mediada ma'no ko'chishining axboriy, tahliliy va badiiy-publisistik janrlarda namoyon bo'lishiga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikasion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillari institutining 2023-yil 17-avgustdagi 2106/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, elektron resurslar, bosma darslik uchun manbalar va nazariy hamda amaliy materiallar tayyorlanayotganida manba zahirasi boyitilgan;

ingliz, qoraqalpoq va o'zbek tillarida ma'no ko'chish hodisasi ya'ni gazeta metaforasining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash hamda publisistik uslubdagi metafora, metonimiya va sinekdoxaning lingvistik mohiyatini ochib berish orqali ularning ma'no ko'chishida, yangi ma'no yaratishda hamda gazeta matni ekspressivligini oshirishdagi samaradorligiga oid xulosalardan Qoraqalpog'iston telekanalining 2023 yil 17 fevral kuni madaniy-ma'rifiy mavzudagi "Tilge itibar elge itibar" nomli ko'rsatuvida keng ommaga targ'ib etilgan (Qoraqalpog'iston teleradiokanalining 2023-yil 5-iyuldagi 05-22/333-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuv mazmun – mundarijasining ilmiy – ommabopligi tamomlangan hamda yangi manbalar bilan boyitilgan;

uch tildagi ommaviy axborot vositalarida ma'no ko'chishda ekspressivlikni va baholashni yuzaga keltirishi va ularning lingvokulturologik xususiyatlari yuzasidan olingan natija va xulosalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikasion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillari institutining 2023-yil 17-avgustdagi 2106/30.02.01-son ma'lumotnomasi).

Natijada qoraqalpoq, o'zbek va ingliz tillari publisistikasida yashirin baholashning ritorik aspektida ko'chma ma'noli so'zlarda kuchli namoyon bo'lishi ishonitirishning ikkita asosiy turini (assotsiativ-baholovchi va emotsional-estetik baholovchi) ajratish orqali isbotlangan.

Mediamatnlar shaxs omili bilan uzviy bog'liq til birligi sifatida til vakilining ruhiy, aqliy, milliy, madaniy omillari va nutqiy vaziyat talabidan kelib chiqib, ekspressivlikni yuzaga keltirishi ma'no ko'chish xodisasiga murojaat etishni taqazo etadi. Bu esa, o'z navbatida joriylanishga taqdim etilgan tajriba - sinov materiallarining ko'zlangan natijalarga erishganligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha jami 17 ilmiy maqola bosmadan chiqqan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop qilish uchun taqdim qilingan ilmiy nashrlarda 10 maqola, respublika jurnallarida 3 maqola, 7 maqola xorijiy jurnal nashrlarda bosmadan chiqqan. Undan tashqari, tadqiqot natijalari 2 xalqaro va 5 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika, fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va himoyaga olib chiqilgan asosiy mazmunlar bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Media tilida ma'no ko'chishning xodisasi tilshunoslikning o'rganish ob'ekti sifatida**" deb nomlangan bo'lib, tadqiqotning nazariy asoslari belgilanib, Ommaviy axborot vositalari tili tushunchasi aniqlanib, "axborot" va "gazeta tili" atamaları va publisistik matn tushunchalariga ta'rif beriladi. Jahon va mahalliy tilshunos olimlarining ma'no ko'chishning media tili xususidagi fikrlari, lingvistik maqomi yuzasidan fikr-mulohazalari bayon qilinadi. Qoraqalpoq, o'zbek va ingliz tilidagi ommaviy axborot vositalarida ma'no ko'chishning turli nazariyalari qiyosiy ravishda tahlil qilinadi.

O'tgan asrning boshlarida qoraqalpoqlarda milliy o'z-o'zini anglash faol o'sib borayotgan davrda aynan davriy matbuot axborotni ommaga yetkazishning ajralmas vositasi, jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatida belgilangan. Shu bilan birga, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida yuzaga keladigan jarayonlar ma'lum darajada davriy matbuot organlari aniq shakllanib, tartibga solingan va natijada bu

o'z o'rnida qoraqalpoq adabiy til me'yorlarining shakllanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Davriy matbuot paydo bo'lgandan beri gazeta tilining asosiy vazifasi axborot yetkazish bo'lib belgilangan. Darhaqiqat, har bir davlat hayotida ommaga axborot yetkazishda milliy tilning o'rnini o'ta muhimdir. Ma'lumki, aholini u yoki bu yangiliklardan imkon qadar tezroq xabardor qilish istagi kommunikativ vazifalarning tabiatida, shuningdek, ushbu vazifalarning nutq timsolida namoyon bo'ladi. M.Xudoyqulov fikricha: "Inson faoliyatida axborot almashuvi g'oyat muhim rol o'ynaydi. U insonning tashqi dunyoni bilishi, tajribaga ega bo'lishidagi asosiy vositadir"⁶.

D.M. Teshabaeva fikricha axborot bu – kommunikatsiyaning mazmuniy aspekti bo'lib, u kommunikatsion jarayonda axborotni saqlash, yig'ish, tarqatish va saralash vositalari va tarmoqlari bilan uzluksiz bog'langan bo'lib, ularga doimiy ta'sir o'tkazadi va o'zi ham ularning ta'sirida bo'ladi⁷. V.M. Trostnikov "Axborot o'z ma'nosida xabardagi «kerakli» ma'lumotlar bo'lib, ular auditoriya tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlar, me'yorlar, qadriyatlar sifatida anglanadi va shu bilan auditoriyaga ta'sir o'tkazadi" deb hisoblaydi⁸. "Axborot bu – asrash, uzatish, o'zgartirish ob'ekti bo'lib xizmat qiluvchi ma'lumotlardir"⁹.

Qoraqalpoq vaqtli matbuoti tilining uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilgan olim Z.Q. Orazimbetova "... axborot va hodisalarni xalqqa yetkazishda til birliklari va vositalaridan keng, faol foydalaniladi, hatto ularni avvalgi shaklida emas, balki qayta ishlab foydalanish matbuot tiliga xosdir"¹⁰ deya ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, Qoraqalpoq davriy matbuoti qoraqalpoq xalqi adabiy tilining yuksak taraqqiyoti davrida shakllandi.

Gazeta-publitsistik uslubning leksik tizimi ochiq, bu uning og'zaki nutq belgilari bilan faol o'zaro ta'sirini ifodalaydi (ya'ni so'zlashuv leksik birliklari bilan)¹¹. T.J Masharipova Qoraqalpog'iston Respublikasi matbuoti publitsistikasini yoritgan ekan quyidagi fikrlarni keltirgan: "Publitsistika universal qurol sifatida jahon muqaddas diniy-ma'rifiy talqini, mifologiya va xalq rivoya madaniyati, tarixiy bitiklar, adabiy osori atiqalar bag'riga kirib borgani bejiz emas. Publitsistika fenomeni ijtimoiy-siyosiy jarayon ifodasi sifatida tadqiqot tahlili va nazariy aqida farqli o'laroq jamiyat hayoti barcha qatlamlariga ta'sir o'tkazadi. Publitsistika ijtimoiy institut maqomiga ega, binobarin, u barcha aholi qatlamlari tomonidan e'tirof etilgan, ijtimoiy aloqani tartiblashtiradigan, da'vat etish kuchiga ega bo'lgan, odamlarni jamiyat aktsiyalariga jalb etib, yalpi safarbarlikka yo'naltirilgan

⁶Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. –Т.: Тафаккур, 2011. – Б.41.

⁷Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф. д-ри.дисс. –Тошкент, 2012. –Б. 26.

⁸Тростников В.М. Человек и информация. – М., 1980. – С.14.

⁹Теория информации // Сборник рекомендуемых терминов. Вып.64. – М., 1964. – С.5.

¹⁰Оразимбетова З.Қ. Қорақалпоқ вақтли матбуоти тилининг услубий хусусиятлари. Филол. фан.доктори (DSc) дисс... автореф. Нукус – 2019. – Б. 18.

¹¹Петрова Е.А.Лексика американских и британских газет в аспекте языка города.Автор. дисс...канд.филол. наук. – Курск, 2009. – Б. 14.

tarmoqlararo qadriyaviy ijtimoiy institut (tarmoqlararo jurnalistika, targ'ibot, adabiyot, she'riyat va boshqa sohalarga xos bo'lgan ijod turi)¹².

Har qanday matnda ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi trop deyiladi¹³.

J.Maruzo ko'chma ma'noli so'zlarni uch turga metafora, metonimiya, sinekdoxaga ajratadi. Rus tilshunosi L. A. Bulaxovskiy esa ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisani olti turga bo'lgan: metafora, vazifadoshlik, emotsionallik, metonimiya, xalq etimologiyasi sifatida, aloqadorlik. L.A. Bulaxovskiy sinekdoxani metonimiyaning bir ko'rinishi deb hisoblaydi¹⁴. O.Azizov ham L.A. Bulaxovskiy fikriga qo'shilgan holda ma'no ko'chishining turlari sifatida metafora va metonimiya hodisalarini ko'rsatib, sinekdoxani metonimiyaning bir ko'rinishi sifatida baholaydi¹⁵.

Biz tadqiqotimizda J. Maruzo tomonidan ko'rsatilgan ko'chma ma'noli so'zlarni uch turiga *metafora, metonimiya va sinekdoxaga* murojaat qilamiz va gazeta matni misolida taxlilga tortdik.

M. Jonson va J. Lakoff: "Metaforalar kundalik hayotga kirib boradi va nafaqat tilda, balki tafakkurda ham namoyon bo'ladi, metafora nafaqat ob'ektning g'oyasini shakllantiradi, balki u haqida fikr yuritish usuli va uslubini oldindan belgilaydi" deb hisoblashadi¹⁶. E. Begmatov, Yo. Tojievlar metaforaga quyidagicha yondashdilar: «metafora tuzilishiga ko'ra ikki xil: sodda, kengaygan. Sodda metafora birgina so'zdan tashkil topsa, kengaygan metafora ikki yoki undan ortiq so'zlarda tuziladi. Masalan, *gumbaz* (osmon), *tulki* (ayyor), *ilon* (sovuq odam) kabi sodda: *po'lat ot*, *zangor kema* (paxta terish mashinasi), *oq oltin* (paxta), *zangori olov* (gaz), *po'lat qush* (samolyot) kabi metaforalar esa kengaygan metaforalardir»¹⁷.

Gazeta-publitsistik uslubining asosiy jihatlaridan biri – unda emotsional-ekspressivlik o'quvchi ommasiga ta'sir ko'rsatish funktsiyasi bilan bevosita bog'liq. Bu uslubning standarti ijtimoiy jihatdan ahamiyatli axborotni yetkazish sur'ati bilan bog'liq¹⁸. Gazetaning ta'sir funktsiyalarining ob'ekti, gazeta o'quvchisi, ya'ni jamiyat, uning vazifasi esa jamoatchilik qarashlarining shakllanishiga ta'sir etishdan iborat. Shu bilan birga, gazeta matnlari vaziyatni u yoki bu rakursdan ochib, jamiyatni ma'lum darajada qo'zg'atishga urinadi - ular o'quvchida oldindan rejalashtirilgan, zaruriy munosabatni uyg'otadi.

¹²Машарипова Т.Ж Публицистика назариясининг яхлит концепцияси (илмий-методологик таҳлил, Қорақалпоғистон Республикаси матбуоти материаллари мисолида). Филолол.фан. (DSc)... дис.автор. – Нукус. 2020. – Б. 5.

¹³ Шомаксудов Ф., Расулов И., Қўнғуров Р., Ҳ. Рустамов. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент.: «ЎҚИТУВЧИ» 1985. – Б. 237.

¹⁴Каранг: Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. – М.: УРСС, 2004; Булаховский Л. А. Введение в языкознание. – М.: Учпедгиз, 1954.

¹⁵ Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Тошкент., 1963. – Б. 63-64.

¹⁶ Джонсон М., Лакофф Дж. Метафоры, которыми мы живем // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С.387.

¹⁷Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган: НамДУ нашри, 2006. – Б. 41.

¹⁸Тешабасева Д.М. Кўрсатилган диссертация. – Б. 105.

Ayniqsa gazeta tilidagi ekspressivlik, uslubiy, psixolingvistik, diskursiv, kognitiv va semiotik yo‘nalish nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Ular troplarning yaratilishining yangiligi, belgilanayotgan tushunchalarning shakl hamda mazmunining yangiligi, birliklarning adabiy tilda ishlatilishidagi yangiliklar va alohida til tashuvchilari nutqidagi yangilik mezonlariga asoslanadi.

“Qoraqalpoq, o‘zbek va ingliz gazeta matnida ma’no ko‘chishning lingvistik tasnifi” deb nomlangan ikkinchi bobda, ma’no ko‘chishi turlari so‘zning ma’lum bir tematik guruhga mansubligi, leksik-grammatik kategoriya nutq turi va gazeta janriga qarab tahlilga tortiladi.

Ko‘chma ma’no so‘zlardan foydalanish til siyosati bilan bog‘liq hodisaligini siyosiy – ijtimoiy matnlarda ishtirok etuvchi metafora, metonimiya va sinekdoxalarda kuzatish mumkin. Zero, har qanday axborot birinchi o‘rinda ekspressivlikka yo‘g‘rilganligi buni isbotidir. Yangidan yangi tushunchalarni kirib kelishi ham tilimizda juda ko‘p ko‘chma ma’nolarni yaratilishiga sabab bo‘lmoqda va bu birinchi o‘rinda mediamatn orqali targ‘ib qilinishi kuzatiladi. Masalan: qoraqalpoq tilida: *donor mámleketler, xadal nan, ásir illeti, qara bazar, korona bálesi, nizam sheńberinde*; o‘zbek tilida: *g‘oliblikni qo‘lga kiritish; achchiq qismat, ma’rifat kuchi, ilm-fan kuchi; tafakkur kuchi; xonadon farishtasi; oltin qalam, qalb og‘irligi; chap oyoq (ko‘chma ma’noda) va h.k.*; ingliz tilida: *a lame duck- muvaffaqiyatsiz odam yoki narsa; the ice of recession - mamlakat iqtisodiyoti muvaffaqiyatli bo‘lmagan va biznes uchun sharoitlar yomon bo‘lgan davr; truths in the eyes- ko‘zlardagi haqiqatlar; killing cities - shaharlarni o‘ldirish; the fire of inflation- inflyatsiya oloviva h.k.*

Olimlar ta’kidlaganidek, “publitsistik matnda ma’lum bir metaforani tanlash – bu ma’lum bir ishtirak strategiyasini, baholovchi g‘oyaviy yuklangan nominatsiya yordamida adresatning ongida unga kerak bo‘lgan voqea tasvirini yaratish va mustahkamlashdir”¹⁹.

Metaforalar ma’no ko‘chish yo‘li bilan yangi ma’no hosil bo‘lishiga olib keluvchi asosiy hodisalardan ekanligini ular asosida ma’no ko‘chishi narsa, belgi yoki harakatga xos o‘zaro o‘xshashligi bo‘lgan boshqa belgi, narsa, harakat haqidagi tushuncha uchun ham qo‘llanishi, shu tushunchaning ham nomiga o‘tishidir. Masalan, ingliz tilida: *“But even though the vibe of the song is quite chill, there’s an underlying message of frustration running through it, particularly when Swift sings that love thorns all over this rose”*. [<https://www.washingtonpost.com/entertainment/music/2023.10.27>]. Ushbu misolda *“love thorns all over this rose”* metaforasida ayol kishini atir gulga taqqoslab, sevgining barcha qiyinchiliklarga chidashini nazarda tutadi.

Qoraqalpoq gazeta tilida ham metaforalar mediamatn usuli sifatida qo‘llaniladi: *“Atap ótetuǵın bolsaq, oqıwshı jaslardan Qudaybergen Tilepbaev hár jılı ótkeriletuǵın qaraqalpaq tili hám ádebiyatınıń qos bayteregi dóretiwshiligine arnalǵan...”*; [Qaraqalpaqstan Jaslari 2022.20.01]; va h.k. Ushbu misollarda *mápler soqlıǵısıwı* – Shaxsning o‘z lavozimi yoki majburiyatlaridan foydalanishi, qos

¹⁹Клушина Н.И. Стратегия именования в воздействующей речи // Вестн. МГУ. Сер. 10. Журналистика. 2006. № 5.– С. 50.

bayteregi esa qoraqalpoq xalqining adabiyoti ulug' namoyondalari T.Qaypbergenov va I.Yusupovlarni "bayterek" daraxtlariga qiyoslab ko'rsatilgan.

O'zbek gazeta tilida ham shu xolat kuzatiladi: "*Ayolni bog'da barq urib o'sgan gulga qiyoslash mumkin. O'sha gul risoladagidek unib- o'sishi uchun uni parvarishlab, atrofini begona o'tlardan tozalab turish kerak*" [Yangi O'zbekiston 2022. 26.03]. Ushbu misolda *Gulso'zi o'z ma'nosida o'simlik, bog'larda o'sadigan turli- tuman gullarni* anglatadi. *Gul* – metafora bo'lib, ushbu misolda o'xshashlik asosida ma'no ko'chgan, ya'ni go'zallik ramzi bo'lgan o'zbek ayollari gulga qiyoslanmoqda. Bu misol orqali muallifning so'z qo'llash bobidagi mahorati yaqqol namoyon bo'lgan. "*Tomchida quyosh aks etadi. Ba'zan hayotiy voqea-hodisalar ixcham ifoda etilsada, mutolaa asnosida qalbingizni favqulotda larzaga solgan ajoyib(etuk) epik asar asl so'z san'atining cho'qqisiga aylanadi. Ya'ni yaxshi hikoyaning o'zi ulkan bir romandir*" [Yangi O'zbekiston, 2022.24.03] va h.k. Misoldan ko'rinib turibdiki, nominativ va metaforik ma'no strukturasini kuzatish bu ikki nominativ ma'no uchun umumiy bo'lgan semalar "*Tomchida quyosh*" – "*aks etadi*" semalari ekanligini ko'rsatadi. Xuddi mana shu umumiy semalar tomchi va quyosh so'zining metaforik ma'no hosil bo'lishida asosiy rolni o'ynagan, bu hodisaning lingvistik asosini tashkil etgan.

Demak, bu tipdagi ma'no ko'chishida ham metaforaga xos o'xshashlik belgisi muhim omillardan hisoblanadi. Biroq bu o'xshashlik tashqi belgilar o'xshashligi emas, balki intellektual, tavsiflovchi belgilar o'xshashligidir va ma'noko'chish ham mana shu o'xshashlik asosida sodir bo'lgan. Ingliz tilida: "*The arrest of communications and information minister Johnny G. Plate on corruption charges this week has sparked fresh calls by politicians for a Cabinet reshuffle, with at least one media mogul prepared to fill the newly vacant post amid a rush to influence the selection of a successor*" [https://www.thejakartapost.com. 2023.05.19]. Ushbu misolda *sparked fresh calls* – metaforasi yangi chaqiriqlarga sabab bo'lishko'chma ma'no hosil qilgan.

Kuzatishlar qoraqalpoq, o'zbek va ingliz tillarida mediamatnda metafora asosida ko'chma ma'no hosil qilishda axborotning mazmuni, o'zaro o'xshashligi, aniq voqea va hodisalar doirasida hosil bo'lishi va oldindan auditoriyaga tanish tushunchalarni o'z ichiga olishi kuzatildi.

Qoraqalpoq, o'zbek va ingliz mediamatn tarkibida keluvchi metaforalar til arsenalida mavjud leksik vositalar jurnalistning nutq predmetiga nisbatan emotsional munosabatini uning istagi darajasida yorqin, obrazli qilib ifodalashga xizmat qiladi. Metaforani, qoida tariqasida, fikrni lakonik shaklda keltirishini hisobga olsak, metaforik nominatsiyalar ko'pincha analitik gazeta materiallari sarlavhalarida uchrashi kuzatiladi: "*Radionin siyqirli dunyasi*"; "*Kitaplar karvani*"; "*Kewildin mulki*"; "*Teatr tarbiya oshaqi*"; "*Tinshliq tani atar elimde*"; "*Jaqs tarbiya - haqiqiy margiya*" [Qaraqalpaqstan jaslari, Erkin Qaraqalpaqstan, Tinshliq saqshisi, Qaraqalpaq adabiyati]. O'zbek tilida: "*Qo'li gul usta*"; "*Osmondan tushgan boylik*"; "*Samiymiylik va beg'uborlik kuychisi*"; "*Do'rmon Baxori*" adabiyot forumi qalblarga ilxom bag'ishladi"; "*Navoiyda "Saxro baxshilari" musiqiy festivali o'tkazildi*" ["Yangi O'zbekiston", "Xalq so'zi", "Adolat" gazetalari]. Ingliz tilida: "*Fast fashion giant Temu accuses Shein of starting 'war' over US markets*";

“We could soon see a Jane Austen-style marriage market”: how the housing crisis is turning modern dating on its head”; “Gym Shoes In The Oval Office Is A Sartorial Wake-Up Call For Leaders”; “Trump’s GOP rivals open door to cutting Social Security for younger people”[The Guardian, Forbes, The Washington Post].

Shuningdek, gazeta matnlarida metafora, metonimiya va sinekdoxadan foydalanishga ta’sir qiluvchi bir qancha omillar, jumladan, jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy o’zgarishlar, mamlakatning siyosiy voqeligi, iqtisodiy sharoitlar va globalashuv jarayonlari aniqlandi:

1. Madaniy va ijtimoiy o’zgarishlar: Madaniy va ijtimoiy o’zgarishlar jurnalistika tili va uslubiga ta’sir qiladi. Ijtimoiy me’yorlarni o’zgartirish kabi yangi madaniy tendentsiyalar yangi metafora va tasvirlarga olib kelishi mumkin bo’lib, gazeta matnlarida quyidagi ma’no ko’chish xodisasi kuzatiladi: qoraqalpoq tilida: *salamat jámiyet, Rally Muynak, qara úy, baspana, qol qanat, oñ barmaq oyilgan, bayterek, muxabbatqa jerlew, pútkil auditoriya, dasturxon, dasturxon qiliw, Aral samallari, Aral hawazi, xaliq jırshısı, Kitaplar kárwani, tarbiya oshağı, kewil múlki, qaqpıq bolıw, úydin ishi*; o’zbek tilida: *yurtimiz quyoshi, po‘lat qush, tuyoq, tirnoq, yashil makon, ma‘rifat kuchi, oltin qalam, Saxro baxshilari, qo‘li gul, Do‘rmon Baxori, tabiat uygonishi, Tili shirin, mustahkam poydevor, uyg‘onishlar ildizi*; ingliz tilida: *riding a wave, different heart and head, delicate hands, hired hands, boot camp, the red carpet, melting pot, mosaic, tapestry, storm, love thorns, run a program, give a hand, corona crisis, ocean of faces, surfing the internet, tree killer, abort, virus, webpage, cyberspace, cybersecurity, hot link, hot spot*.

Shuni alohida qayd etish lozimki, ma’no ko’chish xodisasi dinamik jarayon bo’lib jamiyat o’zgarishi bilan birga, uni aks ettiruvchi lingvistik vositalar ham o’zgaradi. Misol uchun, raqamli asrning yuksalishi yangiliklarga ko’plab yangi metaforalarni kiritdi, masalan, *“internetda kezish”* yoki *“virusli bo‘lish”*. Shuningdek, an’anaviy qadriyatlarni idrok etishdagi o’zgarishlar yangi ijtimoiy hodisalarni belgilash uchun metonimiyadan foydalanishga olib kelishi mumkin. Yana misol keltiramiz: *“Zavlodiraqamli aborigenlardir”* (aborigenlar bilant aqqoslashularning raqamli dunyodabiiyliginita’ki dlaydi); *“Ijtimoiy media-bujamoatchilik muhokamasi uchun yangi maydon”* (maydon – arenag‘oyalarkurash joyisifatida). Metonimiya: *“Gollivud yangi film suratga olishga qaror qildi”* (Gollivud butunkinosanoatiga murojaat qilish uchun ishlatiladi); *“Nafaqaxo‘rlar va pensiyayoshini oshirish”* (nafaqaxo‘rlar nafaqat nafaqadagi odamlar, balki guruhning ramz sifatida). Sinekdoxa: *“Har bir yurakeshitilish kerak”* (yurak umum odamlarni ifodalovchi qism sifatida). *“Mamlakat dacharchagankozlar juda ko‘p”* (ko‘zlarcha choqni ifoda etadigan odamlarning ramz sifatida).

2. Siyosiy voqelik: Mamlakatdagi yoki dunyodagi siyosiy vaziyat jurnalistik matnlarning tiliga bevosita ta’sir qiladi. Siyosiy beqarorlik yoki inqiroz sharoitida mualliflar murakkab g‘oyalar yoki his-tuyg‘ularni ifodalash uchun metaforalarga murojaat qilishlari mumkin: qoraqalpoq tilida: *Siyasyi mapaz, siyasiy process, siyasiy iskerlik, Tiykarg‘i nizam, kóshpeli mámleketlik tizim, ashshı haqıyqat*; o’zbek tilida: *Siyosiy jarayon, siyosiy faoliyat, Siyosiy boshqaruv, soxta*

yangiliklar, achchiq haqiqat, o'tkir muammo, boykot qilish, Bosh bo'lish, siyosiy boshpana; ingliz tilida: *Hollywood, White House, Silicon valley, The Crown, marketplace of ideas, Oval Office, Deadlocked, battleground, journey, bridge, lame duck, spin doctor, fake news, hard power, soft power.*

3. Iqtisodiy omillar: Inqirozlar yoki *bum* (iqtisodiy o'sish) kabi iqtisodiy sharoitlar ham jurnalistika tiliga namoyon bo'ladi. Bu holat mavzu va janr bilan bog'liq hodisa sifatida qoraladi. Iqtisodiy beqarorlik davrida moliya va resurslar bilan bog'liq metaforalar paydo bo'lishi mumkin. Masalan, qoraqalpoq tilida: *jergilikli byudjet, milliy valyuta, milliy byudjet, jinayi daramatlar, perspektivali kredit, valyuta kursi, elektron aukcion, omirsheh reformalar, valyutanin siniwi, sirtqi sawda, qara bazar*; o'zbek tilida: *Iqtisodiy inqiroz, kapital jamlanishi, maxalliy byudjet, ochiq valyuta, milliy valyuta, milliy byudjet, investitsion chanqoqlik, tashqi savdo, faol aktsiya, yashirin iqtisodiyot, jinoyi daromadlar*; ingliz tilida: *economic recovery, economic crisis, striving economy, nurturing economy, bull and bear stock market, the market nerve*. Metaforalar murakkab iqtisodiy tushunchalarni soddalashtirish va ularni keng auditoriyaga yanada qulayroq tushuntirish uchun ishlatilishi mumkin. Metonimiya ma'lum sohalar bilan bog'liq atamalardan foydalanishda o'zini namoyon qilishi mumkin (masalan, AQShda moliya sektoriga murojaat qilish uchun "*Uoll-street*²⁰"). "*economic shtorm* - iqtisodiy bo'ron" yoki "*financial shtorm* - moliyaviy bo'ron"); metafora: "*Iqtisodiyotin qirozdan keyin oyoqqaturdi*" (qiyinchiliklardan tiklanish). "*Narxlar osmon gako tarildi*" (narxlarning keskin ko'tarilishi) - metonimiya: "*Bozoryangiliklarga javob berdi*" (bozormoliyatizimining gramzisifatida); "*Silikon vodiysi yangi startaplarni taqdim etdi*" (Silikon vodiysi²¹ butun texnologiya sanoatining gramzisifatida); sinekdoxa: "*Zavodga ishchi qo'llar kerak*" (qo'llar ishchilik uchun gramzisifatida). "*Butun biznes yechimni kutmoqda*" (biznes barcha korxonalarning yig'indisifatida).

4. Axborot texnologiyalari va glaballashuv jarayoni: qoraqalpoq tilida: *internette keziw, virus, immunitet qaliplesiw, kiber jinayat, kiber maydan, kiber hujim, transport kommunikacyalari, magistral telekommunikacya tarmoqlari, Aral Stixiyasi, mobil qabillawxana, , cifrlı televideniye, mobil programmalastiriw, global ekonomika*; o'zbek tilida: *Kiber maydon, kiber jinoyat, internetda kezish, virusli bo'lish, Geoportal, global siyosiy va global iqtisodiy aloqalar, aqlli megapolis, smart shartnomalar, raqamli televideniye, raqamli turizm, global iqtisodiyot, global yondoshuv*; ingliz tilida: *global village, web of interdependence, global marketplace, borderless world, race to the bottom, the heart of the global economy, network society, system of trade*. Ushbu jarayon shuningdek, ekspressiv vositalarni tanlashga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ba'zi mavzularning (masalan, ekologiya yoki inson huquqlari) tarqalishiga yordam beradi.

Ushbu omillarning har biri metafora, metonimiya va sinekdoxalarni tanlashga ta'sir qilib, jurnalistik matnlar tilini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu tilni

²⁰<https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/wall-street?q=Wall+Street> AQShning moliyaviy markazini ifodalovchi Nyu-Yorkdagi ko'cha

²¹<https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/silicon-valley> Shimoliy Kaliforniyadagi kompyuter materiallari va elektron qurilmalarni ishlab chiqaradigan yoki ishlatadigan ko'plab kompaniyalar mavjud bo'lgan hudud

yanada ifodali va zamonaviy voqelikka moslashtiradi, va keltirilgan misollarturliomillarijurnalistikmatnlarningtiligaqandayta'sir qilishini, ularga ekspressivlik vadolzarblikniberishiniko'rsatadi.

Publitsistika tasviriy ifoda vositalarining muhim jihatlaridan biri uning baholash xususiyatiga ega ekanligidan iboratligi gazeta, publitsistika ekspressiv vositalarga muhtojliginianglatadi. Biroq gazeta-publitsistik nutqida ekspressiya yaqqol ko'rinib turgan ijtimoiy xususiyat ustundir. Bu, avvalo, maqsadga yo'naltirilgan, tanlangan, baholovchi xususiyatga ega ekspressiyadir. Ko'chma ma'nodagi so'z va iboralar publitsistikada gapning bezagi, materialni jonlantirish vositasi sifatida o'z-o'zidan emas, balki ular ko'rsatadigan baholovchi ta'sir nuqtai nazaridan qimmatlidir. Gazeta-publitsistik uslubi targ'ibot vositalarining spetsifikasi, bir tomondan, ko'chma ma'nodagi so'zlardan foydalanishga muayyan cheklovlarni qo'ysa, ikkinchi tomondan, ularni xuddi maxsuslashtirgandek aynan gazeta-publitsistik uslubi vazifalari bilan asoslagan bo'ladi.

Dissertatsiyaninguchinchi bobi **“Ingliz, qoraqalpoq va o'zbek gazeta matnida ma'no ko'chishning lingvokulturologik xususiyatlari”** deb nomlanadi. Bobda gazeta matnida ma'noko'chish hodisasining lingvokulturologik aspekti,ma'noko'chish hodisasining lingvokulturologikjihatlarini, ijtimoiy-siyosiy matnlarda ma'noko'chishning lingvomadaniy masalalari va siyosiy matnlarda uzual va tasodifiy okkazional metaforalarning namoyon bo'lish darajasi tahlilga tortilgan.

Tadqiqot ob'ekti bo'lgan ma'noko'chish hodisasining lingvomadaniy xususiyatlari, ayniqsa, matnda yangi ma'no beruvchi til birliklarini nominatsiyasida yorqin aks etadi. Bu til egalari tomonidan ma'noko'chishini mediamatn shakllanishida maxsus hosil qilinishi ularning milliy-madaniy xoslanishini ko'rsatadi. “Lingvomadaniyatshunoslik – madaniyat va faoliyatdagi tilning aloqasi va o'zaro ta'sirini o'rganadigan va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy mazmun uyg'unligida birliklarning yaxlit tuzilishi sifatida tizimli usullardan foydalangan va zamonaviy ustuvor yo'nalishlarga va madaniy qonun-qoidalarga yo'naltirilgan holda aks ettiruvchi sintezlovchi tipdagi kompleks ilmiy fan”²². “Mentallik xususiyatiga hamda lisoniy ifodaga ega bo'lgan, etnomadaniy o'ziga xoslik bilan ajralib turuvchi jamoa ongi birligi”²³ hisoblanadi.D.M. Teshabaeva “turli millatlarda mentalitet va madaniy an'analarga ko'ra, so'z va iboralar muloqot maqsadi va holatiga qarab turlicha qo'llaniladi, tushuniladi va kommunikativ maqsadga yo'nalganlik noan'anaviy tarzda anglashiladi. Har bir madaniyat kishilar tomonidan to'plangan ko'p yoki oz tajribaga ega. Millatning harakati va qabul etishi madaniy ko'nikmalari bilan izohlanadi” deb izohlaydi²⁴.

Tillarning milliy-madaniy va strukturaviy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda so'z ma'nosining ko'chishi bilan bog'liq lingvistik hodisalar barcha tillarda ham bir xil emas. Chunki tillar bir xil ijtimoiy rivojlanishda bo'lmagani singari, ularning strukturalari ham bir-biridan farqlanadi.Qoraqalpoq va o'zbek

²²Воробьев В.В. Лингвокультурология (Теория и методы). – М.: Изд-во РУДН, 1997. – С. 36-37.

²³Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 25.

²⁴Тешабаева Д.М. Кўрсатилган асар: – Б. 92.

gazetalarida metaforalar xalq madaniyati va qadriyatlarini ifodalashda qo'llanilishi kuzatildi va bu ko'p hollarda gazeta tilining milliylik xususiyatini anglatadi: “*Álbette, basshi bolıw, xalıqtıń isenimin aqlaw úlken juwappershilikti talap etedi. Sonlıktan da, aqsaqallar bul isenimdi aqlaw arqalı húkimetimizdiń párman hám qararlarınıń orınlanıwında jańasha kóz-qarastı hám izleniwshenlikti talap eteri sózsiz*” [Paytaxt 8.06.2022]; Aqsaqal²⁵ – metafora, qoraqalpoq millatiga mansub yoshi katta, ko'pni ko'rgan, to'ralik etishga yetishgan kishi. “*Sonıń menen birge, Nókis qalasında jaylaskan hám Ishki isler ministrıligi tárepinen atalıqqa alıńǵan 22-sanlı qániygelestirilgen mektep, internatınıń hayal-qızlar futbol komandasına 20 dana sport formaları sawǵa etildi*” [Tınıshlıq saqshısı, 2022.30.11]. Ushbu misolda “*atalıqqa alıńǵan*” metaforik iborasi orqali xomiylik ko'chma ma'nosi hosil qilingan.

Qoraqalpoqva o'zbek lingvomadaniyatlarida xalq tafakkuri va mentalitetining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi o'ziga xos metaforik iboralar mavjud.

Qoraqalpoq tilida: *Ázel-ázelden qara úydiń tóri miyman ornı, awzı uy iyesi ornı bolǵanlıǵı bawırı keń, kewli dár'ya xalqımızdıń miymandos ekenliginen dálil.* [Qaraqalpaq ádebiyatı 16/04/2022]; Ushbu misolda *qara uydıń tóri, awzı, bawırı keń, kewli dár'ya*- qaraqalpoq mentalitetiga mansub xar kuni foydalaniladigan obrazli metaforalar, kontekstta ekspressivlikni kuchayttirishda o'rinli qo'llanilgan. O'zbek matbuotida: “**Bahor va tabiat uyg'onishining timsoli, sharqona yangi yilning boshlanishi bo'lgan Navro'zi olamni baland ruh va katta shodiyona bilan nishonlash azal-azaldan el-yurtimiz uchun go'zal an'ana hisoblanadi**” [«Yangi O'zbekiston».11.03.2023]. Ushbu misolda *tabiat uyg'onishi; baland ruh; katta shodiyona* misollarida metaforik ma'noko'chish xodisasi kuzatiladi. Ingliz tilida: *food for thought, a brainwave, heart of gold, couch potato, to chew on something*;

Metonomiyaning lingvokul'turologik xususiyati haqida gap borganda ramziy element uchun belgini bildirish xodisasi ham kuzatiladi: “*The pen is mightier than the sword*” [https://www.nytimes.com/2021/12/18]. Ushbu matnda metonimiyaning ikkita turi mavjud bo'lib, “*qalam*” va “*qilich*” so'zlari ko'chma ma'noda “*yozma so'zlar*” va “*harbiy kuch*” o'rniga ularning ma'nosi ancha ramziy bo'ladi. “*Sonda gazetalar menen birge sol gazetada islep, tisi shuqqan, soǵan beyimlesken qádirdan kásiples-qálemleslerimniń de «ólip ketetuǵınına» isengim kelmegen.*” [Qaraqalpaqstan jasları, 25/07/2022]. Ushbu misolda *qálemleslerim* – avtor va uning ishi orasidagi bog'liqlik usulida xosil qilgan metonimik iboradir; O'zbek tilida: “*U bayroqqa sadoqat bilan qasamyod qildi*” [Yangi O'zbekiston, 2022. 22.06] misolida *bayroq* millat va davlat ramzi hisoblanadi, va bunda vatanga sadoqat nazarda tutilgan. Ingliz tilida: “*White House grapples with internal divisions on Israel-Gaza*” [https://www.washingtonpost.com/politics/2023/11/26] Oq uy Isroel-Gaso boyicha ichki bo'linishlar bilan kurashmoqda. “*White House – Oq Uy*” ko'pincha AQSh hukumati yoki Prezidentligiga ishora qiladi.

²⁵ Қарақалпақ тилинің түсіндірме сөзлігі, Жети томлық, Бірінші том, А – Б (басылдырыу), Толықтырылған екінші басылымы, Нөкіс, “Қарақалпақстан”, 2023. – Б. 75.

Sinekdoxaning muhim lingvokul'turologik jihatini sinekdoxa – madaniy stereotiplar va g'oyalarni yetkazish uchun vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. U tafakkur va madaniy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi murakkab g'oyalar yoki tushunchalarni umumlashtirish va soddalashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, “*temuriylar*” sinekdoxasini “*yoshlarga*” nisbatan qo'llaniladi. U birdamlik, jamoaviy ish va har bir ishtirokchining umumiy muvaffaqiyat uchun muhimligini anglatadi. Masalan, qoraqalpoq tilida: “*Elimizde ko'p milletli xalqımız awizbirshilikli türde jasadurğan bir dāwirde, xalıq arasına alaawızlıq salmaqshı bolatugınlar da az emes*”. [Paytaxt, 31.10.2022]; Bu berilgan misolda *awizbirshilik* – birdamlikni, va *alaawızlıq* – buzg'inchilik ma'nosida berilgan. Ingliz tilida: “*How the Crown has more power than you think*” [<https://www.theguardian.com/uk-news/video/2022/dec/01/>]. *the Crown* - toj Britaniya monarxiyasini ifodalash uchun ishlatilgan.

Qoraqalpoq gazetalarida ko'chma ma'no hodisasini tahliliko'pincha tarixiy voqealar va xalqning madaniy merosi bilan bog'liq bo'lib, boy tarix va madaniyatga ega bo'lgan tarixiy shaxslar, davrlar yoki joylar bilan bog'liq bo'lgan, xalqning chuqur madaniy ildizlari va o'ziga xosligini aks ettiruvchi tushunchalarni aks ettiradi va ularning matn yaratishda o'ziga xosligi kuzatildi: «*Maqtanish penen aytiwımız orınlı, shınında da, bul jaslarımız Aral hawazın pútkil dúnyağa tanıttı*» [Jetkinshek, 10.02.2023]. Keltirilgan jumlada muallif Orolbo'yi yoshlarining iqtidorini alohida ta'kidlaydi. «*Tumaris teńleslerine úlgi bolatugında bilimli, zeyinli, on barmagi oyılğan ónerliqiz. Klasında eń úlgili oqıwshılardıń biri. Ásirese, Tuńgısh qızı bolğanlıqtan ol anasınıń jaqın járdemshisi, qol-qanatı*» [Jetkinshek, 10.02.2023]. “*on barmagi oyılğan*” – metafora asosida ma'no ko'chgan, chevar, iste'dodli ma'nosini bildiradi “*qol-qanatı*” – sinekdoxa, qism orqali butunni ifodalash asosida ma'no ko'chgan, Tirkak, suyanish ma'nosini bildiradi. “– Awa, *aqsaqal*, usı Nazira kelinim. Mennen keyingi inim bar edi, usı bala 5-klass Baǵanaǵı *tápberdilerdiń shuwlasıwı, ayqasıwı Naziranı esinen awdırdıma... Haw endi bul esitip oturǵanlarım ońım ba?! – dep ań sarı shıqqan Nazira jaltaqlap kim sóylese soǵan qarap otır.*» [Qaraqalpaqstan jaslari, 06.08.2023]; “*Aǵayın-tuwısqanlarımızdan dasturxanlanıp barıp xabar alıw ata-babalarımızdan qalǵan dástúr degen menen házirgi texnologiyalardıń rawajlanıw dāwirinde telefon, kompyuter hám taǵı basqa úskeneler biziń búgingi kún qatnasıw quralı bolıp barmaqta*” [Tınıshlıq Saqshısı 30.09.2023]. “*Dasturxanlanıw*” – sinekdoxa, dasturxon o'zi emas balki ichidagi narsalar nazarda tutilgan.

Tadqiqotda siyosiy matnlarni tahlilga tortishda ma'no ko'chishning quyidagi turlari kuzatildi: Uzual metafora – bu tilda o'rnatilgan tasvir bo'lib, u standart nutq aylanmasining bir qismiga aylanadi. U turli kontekstlarda keng qo'llaniladi va ko'pchilik ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan oson tushuniladi. Uzual metafora o'zining ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Bu o'quvchi yoki tinglovchidan talqin qilish uchun katta bilim harakatlarini talab qilmaydi, chunki u umumiy qabul qilingan tilning bir qismidir. Siyosiy matnlarda uzual metaforalar ko'pincha murakkab siyosiy tushunchalarni soddaga va tushunarli so'zlar bilan etkazish uchun ishlatiladi: qoraqalpoq tilida: “*Haqiqatında xalıq tárezi*” (Xalq birligidagi kuch, ko'pincha qaror qabul qilishda jamoatchilik fikriy oqiovoz berish

muhimrolo‘ynaydigandemokratikjarayonlarkontekstidaqo‘llaniladi); o‘zbektilida: **“Mustaqillikyo‘li”** (kontekstga qarab, u asta-sekin maqsadga erishish g‘oyasini aks ettirishi mumkin, bu yerda har bir qadam muhim va kuch talab qiladi, yo‘l to‘siqlarni yengib o‘tish, qaror qabul qilish, shuningdek qiyinchiliklarga qaramay oldinga siljish ramzi); ingliztilida: **“The political landscape is changing”** (“Siyosiy manzara o‘zgarmoqda” metaforasi siyosiy muhitning umumiy tuzilishi, dinamikasi va sharoitlari sezilarli o‘zgarishlarga duch kelayotganidan dalolat beradi)

Okkazional metafora—bu ma’lum bir kontekst uchun yaratilgan va o‘ziga xos, muallif xarakteriga ega bo‘lgan metafora. Bu umumiy qabul qilingan nutq aylanmasining bir qismi emas va o‘quvchidan talqin qilish va tushunishni talab qiladi. Okkazional metaforalar tilning standart vositalari bilan ifodalab bo‘lmaydigan yangi, o‘ziga xos ma’noni etkazish uchun yaratilgan. Siyosiy nutqda bunday metaforalar alohida g‘oyalar yoki voqealarni ta’kidlash, matnga ekspressivlik va hissiy to‘yinganlikni qo‘shish uchun ishlatiladi. Ushbu metafora muallifning madaniy yoki shaxsiy xususiyatlarini ham aks ettirishi mumkin.Qoraqalpoq tilida: **“Watanımız ğarezsizligi-biz ushunkush-qudiret hám ilham deregi,rawajlaniw hám **abadanliq tiykari**”** (milliyo‘ziga xoslikvakelajakdagirivojlanishningmarkaziyqismi); o‘zbektilida: **“siyosiy sahnadagi yangi sun‘iy yo‘ldosh”**. Bu metafora siyosiy maydonda rol o‘ynay boshlagan yangi siyosiy shaxs, figura yoki harakatning paydo bo‘lishini anglatadi. Sun‘iy yo‘ldosh kosmosda kattaroq jism atrofida aylangani kabi, bu "yangi sun‘iy yo‘ldosh" ham taniqli siyosiy kuchlarga ta’sir o‘tkaza boshlagan yoki ular bilan birlasha boshlagan kichikroq yoki kamroq tashkil etilgan guruh yoki shaxsni anglatishi mumkin.Ingliz tilida: **“The campaign unleashed a tidal wave of support”**. Ushbu metaforakampaniya qo‘llab-quvvatlashning kuchli to‘lqinini qo‘zg‘atdi" metaforasi shuni ko‘rsatadiki, kampaniya odamlarning kuchli qo‘llab-quvvatlashiga sabab bo‘ldi. Kuchli to‘lqin o‘z yo‘lidagi hamma narsani qamrab oladigan tabiatning kuchli va to‘xtatib bo‘lmaydigan kuchi bo‘lgani kabi, bu metafora kampaniya tomonidan yaratilgan qo‘llab-quvvatlash ham keng, ham kuchli bo‘lib, tez va katta ta’sir bilan tarqalganligini anglatadi.


Kuzatishlar siyosiy nutqda uzual metaforalar matnning ravshanligi va mavjudligini saqlab qolish uchun ishlatilishini ko‘rsatdi. Ular asosiy fikrni tez va oson idrok etishga yordam beradi, bu ayniqsa ommaviy axborot vositalarida muhim ahamiyatga ega, bu yerda ma'lumotlar ko‘pincha siqilgan shaklda taqdim etiladi.Okkazional metafora, aksincha, yanada ijodiy va ifodali funktsiyani bajaradi. Ular o‘quvchining e’tiborini jalb qilish, matnni esda qolarli qilish, shuningdek, yanada murakkab va hissiy g‘oyalarni yetkazish qobiliyatiga ega. Turli madaniyatlar va tillarda uzual va tasodifiy metaforalardan foydalanish darajasi har xil bo‘lishi mumkin, bu har bir jamoaning o‘ziga xos madaniy va lingvistik xususiyatlarini aks ettiradi.

Tadqiq qilinayotgan tillar siyosiy matnlarida ko‘p hollarda metaforalarning qo‘llanilish chastotasi yuqoriligi kuzatildi. Qoraqalpoq gazetalarda uzual metaforalar ko‘pincha kollektivism va “birlik” va “kuch” kabi milliy qadriyatlar bilan bog‘liq. Okkazional metaforalar, aksincha, mahalliy madaniy voqelikni yoki milliy o‘ziga xoslikning o‘ziga xos jihatlarini ta’kidlaydigan noyob tasvirlarni aks

ettirishi mumkin. O'zbek gazetalarida siyosiy nutq ko'pincha "yo'l" va "rivojlanish" tushunchalari bilan bog'liq metaforalardan foydalanadi, bu mustaqillik va taraqqiyot haqidagi tarixiy milliy rivoyatni aks ettiradi. Okkazional metaforalar yangi siyosiy shaxslarga yoki harakatlarga e'tibor qaratishi mumkin, ularni noyob tasvirlar orqali taqdim etadi. Ingliz ommaviy axborot vositalari: ingliz tilidagi siyosiy matnlar tabiiy hodisalar va o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan uzual metaforalarning keng doirasini namoyish etadi, bu siyosiy landshaftning dinamikasi va o'zgaruvchanligini ta'kidlaydi. Okkazional metafora ko'pincha kuchli hissiy munosabatni keltirib chiqaradigan yorqin va unutilmas tasvirlarni yaratish uchun ishlatiladi.

Uzual va tasodifiy okkazional metaforalar siyosiy nutqda muhim rol o'ynaydi, murakkab g'oyalarni soddalashtirishdan tortib noyob va ifodali tasvirlarni yaratishgacha bo'lgan turli funktsiyalarni bajaradi. Ulardan foydalanish madaniy va lingvistik xususiyatlarga qarab farq qiladi, bu metaforik tahlilni turli jamiyatlarda siyosiy ritorikani o'rganish uchun qimmatli vositaga aylantiradi.

3.1-diagramma.



Ko'rinib turibdiki, uzual metaforalardan foydalanishning eng yuqori chastotasi qoraqalpoq matnlarida (75%) kuzatiladi, bu ularning barqarorlik va bashoratlilikka yo'naltirilganligini ko'rsatadi. O'zbek matnlarida uzual metaforalar ham yuqori darajada (70%) ishlatiladi, ammo shu bilan birga ular okkazional metaforalar bilan yanada muvozanatli bo'lishga intilishadi. Ingliz tilidagi matnlarda uzual metaforalarning eng past foizi (65%) mavjud bo'lib, bu tildan foydalanishda ko'proq ijodiy yondashish tendentsiyasini ta'kidlaydi. Ingliz tilidagi matnlar okkazional metaforalardan foydalanishning eng yuqori chastotasini (35%) namoyish etadi, bu yorqin va unutilmas tasvirlarni yaratish an'alariga mos keladi. O'zbek matnlari 30% hollarda tasodifiy okkazional metaforalardan foydalangan holda muvozanatli yondashuvni namoyish etadi, bu noyob g'oyalarni ifoda etish istagini aks ettiradi. Qoraqalpoq matnlari 28% hollarda bu

metaforalardan foydalanadi, bu boshqa guruhlarga qaraganda kamroq bo'lsa-da, noyob kontekstual tasvirlarning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, qoraqalpoq, o'zbek va ingliz ommaviy axborot vositalarining siyosiy matnlarida uzual va tasodifiy okkazonal metaforalardan foydalanish chastotasini tahlil qilish turli madaniyatlarda metaforik ifodaga turli yondashuvlarni ko'rsatadi. Qoraqalpoq va o'zbek matnlari an'anaviy va keng tarqalgan metaforalarga sodiqligini namoyish etadi, ingliz matnlari esa noyob va ijodiy tasvirlardan ko'proq foydalanishga moyil. Bu har bir jamiyatning madaniy va lingvistik xususiyatlarini aks ettiradi va siyosiy nutqda metaforalarning ahamiyatini ta'kidlaydi.

XULOSA

1. Ko'chma ma'noli so'zlar uch turga metafora, metonimiya, sinekdoxa ajratiladi. Metaforada bir-birilariga o'xshash predmet va ularning belgilari ko'chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinish yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo umuman bir-biridan farq qiluvchi predmetlar belgilari solishtiriladi. Metonimik ko'chirishga kelsak, polisemiya til va tafakkurning ham umuminsoniy xususiyatlarini, ham milliy til xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi kategoriya bo'lib, shaklning noaniqligi til mavjudligining ob'ektiv qonuniyatidir. Ma'no ko'chishining turlari sifatida sinekdoxa metonimiyaning bir ko'rinishi sifatida qaraladi.

2. Publitsistik uslubda ma'no ko'chish xodisasi – nominatsiya vositasi sifatidamda tilda mavjud bo'lgan ma'nolarni kognitiv manipulyatsiya qilish usuli sifatida vadunyoning lisoniy tasvirini aniq tarzda, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri haqiqatni aks etishda muhim vosita sanaladi. Zero, gazeta-publitsistik uslubning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, uning ijtimoiy hodisalar bilan uzviy bog'liqligi, tilning umumiy leksik-semantik sistemasiga kuchli ta'sir o'tkazishidir.

3. Zamonaviy gazeton yuqori darajadagi lingvistik bilimlarni egallagan, o'zlashtirganyoki til vositalariborasidako'nikmaga ega, zero, tildagi bo'layotgan o'zgarishlar yangi tushunchalar aynan birinchi navbatda mediamatn orqali targ'ib qilinadi. Gazeta ekspressivligi orqali insonning lisoniy xotirasida nafaqat so'zlarning lug'aviy ma'nosi, balki unga qo'shilgan qo'shimcha ma'nolar, baho munosabati, milliy-madaniy konnotatsiya kabilar ham saqlanadi. Bunda, albatta, ko'chma ma'noda keluvchi til birliklarining alohida roli bor.

4. Har qanday tilda shu qatori turli tizimga mansub qoraqalpoq, inglizva o'zbektillarida hamtasviriy vositalarnima'no ko'chish vositalari sifatida qaralishi hamda ularninutqda namoyonbo'lishiinsoniyattafakkurivaaxloqiy qadriyatlar rivoji bilan bog'liq. Uninafaqat til hodisasi, balki, insonningnutqiyvaziyatniqaysidir ma'noda o'zgartirishgamoyilligisifatidahamnamoyonbo'ladi.

5. Qoraqalpoq, inglizva o'zbektillarida publitsistikasibaholash yashirin va ochiq bo'lishi mumkin. Yashirin baholash birinchi navbatda baholash ko'chma ma'noli so'zlarda mavjud. Gazeta axboroti orqalibaholashda ko'chma ma'noli so'zlarni o'rni borasida to'xtalar ekanmiz, ma'no ko'chish hodisasi jurnalistika uchun muhim bo'lgan ishontirishning eng kuchli vositalaridan biri bo'lib,

jurnalistik matnlarda bilvosita ishontirishning ikkita asosiy turini ajratib ko'rsatish mumkin: assotsiativ-baholovchi va emotsional-estetik baholovchi turlari.

6. Ma'no ko'chish hodisasi mazmuni nafaqat lingvistik balki madaniy omillar ta'sirida shakllanadi. Lingvokulturologiya madaniyat genezisiga ko'ra milliy hodisa sifatida qaraladi hamda u millat tomonidan shakllanadi hamda aynan shu millatning madaniy unsurlarini o'zida namoyon qiladi. Media olamida tildan foydalanishda ma'lumot berish, voqea hodisalarni yoritishda verbal vosita sifatida qaraladi hamda nominativ funktsiyasi ta'sirchan matnni yaratilishiga zamin yaratadi. Shu xususiyatiga ko'ra media tili o'zida milliylikni aks ettiradi.

7. Qoraqalpoq, ingliz va o'zbek mediamatnlarda ko'chma ma'nolarning xarakterli xususiyati ularning qo'llanishdagi o'ziga xos jihatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Ular ushbu qo'shimcha ma'no qo'llanilgan kontekst va nutq uslubiga qarab o'zgarishi mumkin. Jurnalistlar milliy tilning imkoniyatlariga murojaat qilishar ekan, o'quvchilarga ma'lumot va hissiy ta'sirni amalga oshirish uchun metafora, metonimiya va sinekdoxadan foydalanishda mediamatnning ta'sirini kuchaytirishni maqsad qilib oladilar.

8. Til madaniyatni kodlash va uzatish vositasi bo'lib xizmat qiladi, mediamatnlar madaniyatning haqiqiy targ'ibotchilari sifatida qaraladi. Mediamatnlar bevosita millatning ma'naviy olamini aks ettiradi, madaniyat bilan chuqur bog'lanadi. Ular ko'plab madaniy kodlarni o'z ichiga oladi va axborot uzatishda madaniy mazmunini tashkil etuvchi ma'lumotlarni saqlaydi. Lekin madaniyatda saqlanib qolmaydi. Mediamatnni yaratish qoidalari u sodir bo'lgan madaniyat kontekstiga bog'liq. Gazeta matnida ko'chma ma'no hodisasidan foydalanish axborot qiymatini oshirishga xizmat qiladi hamda madaniy til birliklariga misol bo'la oladi.

9. Gazeta matnlarida metafora, metonimiya va sinekdoxadan foydalanishga ta'sir qiluvchi bir qancha omillar aniqlandi: madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar, siyosiy iqlim, iqtisodiy sharoitlar va globallashuv. Qoraqalpoq va o'zbek gazeta matnlari tiliga madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar eng katta ta'sir ko'rsatib, 50% va 45% ni tashkil etadi. Ingliz tilida bu omil ham ahamiyatli, ammo kamroq ta'sir qiladi (20%). Siyosiy iqlim ingliz tiliga (30%) qoraqalpoq (15%) va o'zbek (20%) ga nisbatan sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu ingliz tilida so'zlashuvchi ommaviy axborot vositalarining siyosiy sohadagi muhim rolini ta'kidlaydi. Iqtisodiy sharoitlar o'zbek va qoraqalpoq tillariga bir xil ta'sir ko'rsatadi (har biri 25%), ingliz tilida esa ularning ta'siri biroz yuqori (30%). Axborot texnologiyalari va globallashuv har uch tilda ham gazeta matnlarida til o'zgarishiga minimal ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir ingliz tilida eng sezilarlisi (20%). Umuman olganda, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar qoraqalpoq va o'zbek gazetalari tiliga eng muhim ta'sir ko'rsatdi, ingliz tilida esa siyosiy iqlim va iqtisodiy sharoitlar katta ahamiyatga ega bo'lishi namoyon bo'ldi.

10. Qoraqalpoq, o'zbek va ingliz matnlarida uzual va okkazional tasodifiy metaforalardan foydalanish chastotasini tahlil qilish obrazlilik va lingvistik ekspressivlikni yaratishga yondashuvlardagi farqlarni ochib beradi. Qoraqalpoq matnlarida uzual metaforalarning eng yuqori chastotasi (75%) barqaror va bashorat qilinadigan tasvirlarning afzalligini ko'rsatadi, bu an'anaviy va barqaror madaniy

qadriyatlarga yoʻnaltirilganligini namoyon qiladi. Oʻzbek matnlari uzual (70%) va tasodifiy metaforalardan (30%) faol foydalangan holda muvozanat istagini namoyish etadi, bu ularning gʻoyalar va tasvirlarni ifoda etishda moslashuvchanligini aks ettiradi. Ingliz tilidagi matnlar, bir tomondan, uzual metaforalarning eng past foiziga (65%) ega, boshqa tomondan, ular tasodifiy metaforalardan foydalanishning eng yuqori chastotasini (35%) koʻrsatadi, bu ularning tilni yanada ijodiy va innovatsion ishlatishga moyilligini koʻrsatadi. Umuman olganda, yondashuvlardagi bu farq koʻrib chiqilayotgan tillarning har birining oʻziga xos madaniy va lingvistik xususiyatlarini taʼkidlaydi.

11. Har bir tilning oʻziga xosmililytushunchalari va ifodalari mavjud boʻlib, siyosiy matnlarda ingliz tilidagi tabiat tasvirlari, tarixiy voqealar yoki diniy belgilarga asoslangan koʻchma maʼno hodisasini keng tarqalganligi kuzatildi. Qoraqalpoq va oʻzbek gazeta matnlarida koʻp hollarda xalqning oʻziga xos mentaliteti va madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi vosita ekanligi hamda gazeta matnlaridagi metafora, metonimiya va sinekdoxalar xalqning milliy, ijtimoiy meʼyorlari, qadriyatlari va eʼtiqodlarini ham aks ettirishi, ijtimoiy-siyosiy xabarlarda majoziy maʼnoda qoʻllanish millatning oʻziga xos siyosiy ustuvorligi bilan bogʻliqdir.

**SCIENTIFIC COUNCIL PHD.03/30.04. 2022. PHIL. 20.07. AWARDING
SCIENTIFIC DEGREES AT KARAKALPAK STATE UNIVERSITY**

KARAKALPAK STATE UNIVERSITY

TOLEUBAYEVA ALIYA ONDASINOVNA

**LINGUISTIC AND CULTURAL ASPECT OF CHANGING THE
MEANING IN THE MEDIA SPACE (on the examples of the Karakalpak,
Uzbek, and English newspaper texts)**

10.00.06 – “Comparative Literature, Comparative Linguistics and Translation Studies”

**DISSERTATION ABSTRACT
for the doctor of philosophy (PhD) Dissertation on philological sciences**

Nukus – 2024

The theme of the dissertation (Ph.D.) was registered by the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science, and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number V2022.4.PhD/Fil2988.

The dissertation has been carried out at Karakalpak State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English) on the website of the Scientific Council at www.karsu.uz and on the web-site of information-educational portal "Ziynet" www.ziynet.uz.

Scientific supervisor:

Teshabaeva Dillfuza Muminovna
doctor of philological sciences, professor

Official opponents:

Alniyazov Aytmurat Ismailovich
doctor of philological sciences, professor

Mirsanov Gaybulla Kulmuradovich
doctor of philological sciences (DSc), associate professor.

Leading organization:

Bukhara State University.

The defense of dissertation will take place on "20" September at 9.00 at the meeting of Scientific Council PhD 03/30.04. 2022. Phil. 20.07. on awarding of scientific degrees at Karakalpak State University. Address: 230112, Uzbekistan, Nukus city, Ch. Abdirrov Street, 1. Phone: (99861) 223-59-25; fax: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz

The dissertation can be viewed at the Information-Resource Center of Karakalpak State University (registration number 200). Address: 230112, Uzbekistan, Nukus City, Ch. Abdirrov Street, 1. Phone: (99861) 223-59-25.

The abstract of the dissertation was distributed on "30" August, 2024.
(Protocol of the register № 5 on 30 August 2024)



Kudaybergenov M.S.

Chairman of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological sciences, Professor

Seytjanov J.E.

Scientific Secretary of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Candidate of Philological sciences, Professor

Kurbaniyazov G.A.

Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological sciences, Associate Professor

INTRODUCTION (abstract of PhD dissertation)

The topicality and necessity of the dissertation topic. The research carried out in world linguistics is a component of the anthropocentric approach to the language factor and its linguistic and cultural aspects. The methodological apparatus of media linguistics combines the achievements of many fields in which media texts are studied, and the research of media texts in the psycholinguistic, ethnolinguistic, sociolinguistic, and linguocultural aspects within the disciplines of discourse analysis, content analysis, cognitive linguistics, linguistic and cultural studies is being put on the agenda of modern linguistics. Media texts, as a linguistic unit inextricably linked with the individual factor, create expressiveness based on the mental, mental, national, and cultural factors of the language representative and the demand of the speech situation, which makes it necessary to refer to the phenomenon of meaning transfer.

In the course of research devoted to the study of media language in world linguistics, it is necessary to determine the location of the phenomenon of meaning transfer reflected in linguistic units related to the use of the evaluation method in the newspaper text, especially in Karakalpak and Uzbek linguistics, also published in periodicals. great attention is paid to scientific research based on establishing the lexical-stylistic and structural compositional features of the material and texts. In this sense, it is important to study the linguistic aspects of coverage of the current state of people's lives in media texts, to study the phenomenon of meaning transfer in the linguistic and cultural aspects using the example of newspaper texts.

In our country, the mass media is considered the entity at the center of the current linguistic processes, because it appears as a modern model of the national language, and it is based on the fact that it is in constant interaction with the literary lexicon. "... today, when communication with the people, living with people's dreams, pains and worries is rising to the level of state policy, we can achieve our goals only if every mass media becomes a platform for real dialogue, a forum for free opinion."¹ Accordingly, in the framework of the development of the studied language, it is becoming important to carry out scientific research on linguistic, national, and cultural features of linguistic units in unrelated languages.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PF-5847 of October 8, 2019 "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030", PF-60 of January 28, 2022 "2022 - Decree PF-5847 of October 8, 2019 "On the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2026" "Approving the Concept of Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030 Decree PF-5847 dated October 8, 2019 "On Approving the Concept of Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", and PQ-2909 dated April 20, 2017 Resolution on the further development of the higher education system, dated June 5, 2018 PQ-3775 "To improve the quality of education in higher education institutions and ensure their active participation in comprehensive reforms implemented in the

¹**Мирзиёев Ш.** Ўзбекистон матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларини касб байрами билан табриги. <https://daryo.uz/k/2017/06/27/> <https://daryo.uz/k/2017/06/27/>

country PQ-5117, dated May 19, 2021, on "Measures to take the activities of popularizing the study of foreign languages to a qualitatively new level" dated May 19, 2021. This research work serves to a certain extent in the implementation of the tasks defined in the decisions and other normative legal documents related to this activity.

The compliance of the research with the priorities of the republic's science and technology development. The research was carried out within the framework of priority line I. "Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state, development of innovative economy" of the republic's science and technology development.

The level of study of the problem. To date, many scientific studies have been carried out in linguistics, devoted to the study of text, visual means of language, journalistic language, and expressiveness.

The types of transfer of meaning as the main methodological means of representing the image L. Bulakhovsky, L. Bloomfield, I. Galperin, Ye. Kubryakova, A. Shomaksudov, O'. Sharipova, M. Mirtojiev, I. Rasulov, I. Arnol'd, G. Qabuljonova, M. Mirzaev, M. Mukarramov, Z. Tohirov, S.K. Researched by such scientists as Khojiev, G. Nasrullaeva, A. Suvonova, S. Sultonsaidova, M. Dedakhanova.²

Linguistic features of media language A. Abdusaidov, G.H. Bakieva, D.M. Teshabaeva, M. Israel, S. Shomaksudova, E. Begmatov, S. Kongurov, D.S. Khudoyberganova, Yo.Odilov, A.Kh. Among them are scientific researches carried out by Mirzajonov, M. Artikova, Sh. Usmanova, Sh. Jabbarova and others.³

²Булаховский Л.А. Введение в языкознание. Ч.П. – М.: Госучпедгиз, 1954; Galperin I.R. Stylistics. – Moscow, Higher School, 1977. – P. 144-146; Шомаксудов А., Расулов И. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1983.; Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – М.: Просвещение. 1990.; Сувонова Р.А. Ўзбек тилида метонимия. Филол.ф.н. дисс ... автореф. – Самарқанд, 2001.; Sultonsaidova S., Sharipova O'. O'zbektilististikasi. – Т.: YURISTMEDIYAMARKAZI, 2009.; Курбонова М. Мустақиллик даври дostonларида метонимия ва синекдохдан фойдаланиш махорати. Филол. фан.н. дис... автореф. – Фарғона, 2019.; Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси / масъул муҳаррир А.П.Ҳожиев. – Т.: MUMTOZSO'Z, 2010.; Дедаханова М.А. Модерн шеърятда маъно кўчишининг лингвокогнитив аспекти (Рауф Парфи ижоди мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дис.автореф. – Тошкент, 2021.; Хожиев С.К. Сўз маъносининг кўчиши билан боғлиқ лингвистик ҳодисалар. Филол. фан.н. дис... автореф.–Тошкент, 2007. – 23 б.

³Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол. фан.д. дис... автореф. – Самарқанд, 2005; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот тили. – Тошкент: O'zkitobsavdo nashriyot, 2019.; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Медиамаконда матн. – Тошкент, 2019; Тешабаева Д.М., Бакиева Г.Х., Исраил М.И ва бошқ. Медиалингвистика ва таҳрир. Журналистика. III жилд.– Тошкент: Ozbekiston, 2019; Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол. фан.д... дис. – Тошкент, 2012; Худойбергanova Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентриқ талкини. Филол. фан.д... дис. – Тошкент, 2015.; Shomaksudova S., Israil M. OAVda yozma matn. Nutq va munozara. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2018; Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти асослари. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1992.; Одилов Ё. Глобаллашув даври публицистикасининг тилининг таракқиёти. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – 245 б.; Усманова Ш.Б. Медиадискурса газета тили тенденциялари (ўзбек ва инглиз тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2021. – 149 б.; Артикова М. Медиаматнда прецедентлик феноменининг лингвомаданий аспекти (ўзбек ва испан газеталари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2022. – 123 б.; Джаббаровa Ш.Б.

In Karakalpak linguistics, a lot of work has been done on newspaper language, including M.Q. Ayimbetov, T. J. Masharipova, Z. Q. Orazimbetova, G. P. Kallibekova, and D. Q. Qurbaniyazov can be included.⁴

I. Tolstikova McKay, O.P. Matienko, V.V. Lapshina, Yu.V. Podkina's studies in media texts and their linguistic features can be cited.⁵

However, in Uzbek and Karakalpak linguistics, the linguistic and cultural characteristics of the phenomenon of meaning transfer in media texts have not been the object of research.

